

QOBILIYAT

TOSHTEMIROVA RUXSORA O'TKIR QIZI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

biologiya yonalishi 1-bisqich talabasi

ruxsoratoshtemirova3@gmail.com

tel: 953156707

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICH

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-8004-499X>

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsning ma'lum bir faoliyatni samarali amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar majmui - qobiliyatning mazmuni, mohiyati va rivojlantirish jarayoni keng yoritiladi. Qobiliyatning umumiy, maxsus, amaliy va ijobiy turlari ilmiy manbalar asosida tahlil qilinib, ularning shaxs rivojida o'rni ko'rsatib beriladi. Shuningdek, qobiliyatning shakllanishiga ta'sir etuvchi genetik, ijtimoiy muhit, ta'lim va amaliy faoliyat kabi omillar izohlanadi. Maqolada qobiliyatning bosqichma-bosqich rivojlanish mexanizmlari hamda shaxsning kasbiy yo'nalishi va ijtimoiy faoliyatiga ta'siri chuqur o'rganilgan. Ushbu ish qobiliyat haqidagi nazariy qarashlarni umumlashtirib, talaba tadqiqotchilar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy-nazariy materialni taqdim etadi.

Kalit sózlar: qobiliyat, psixologik xususiyatlar, umumiy qobiliyatlar, maxsus qobiliyatlar, ijodkorlik, amaliy ko'nikmalar, qobiliyatning rivojlanishi, genetik omil, ijtimoiy muhit, ta'lim, shaxs rivoji, kasbiy yo'nalish, shaxs faoliyati.

Annotation: This article provides a detailed explanation of the concept, essence, and development process of abilities, understood as a set of psychological qualities necessary for effective performance in a specific activity. It examines general, special, practical, and creative abilities, highlighting their role in personal development and professional growth. The article also discusses key factors influencing the formation of abilities, including genetic predispositions, social environment, education, and practical experience. Moreover, it analyzes the step-by-step mechanisms of ability development and their impact on an individual's career orientation and social activity. This work summarizes theoretical perspectives on the study of abilities and offers valuable scientific and theoretical material for students and researchers.

Keywords: abilities, psychological qualities, general abilities, special abilities, practical skills, ability development, genetic factors, social environment, education, personal development, professional orientation, individual activity.

Аннотация: В данной статье подробно раскрывается содержание, сущность и процесс развития способностей, представляющих качеств, необходимых для успешного выполнения определённой деятельности. Рассматриваются общие, специальные, практические и творческие способности их роль в личностном развитии и профессиональном становлении человека. Также объясняются факторы, влияющие на формирование способностей, такие как генетические особенности, социальная среда, образование и практическая деятельность. В статье анализируются механизмы поэтапного развития способностей и их влияние на профессиональную направленность и социальную активность личности. Работа обобщает теоретические подходы к изучению способностей и представляет собой ценный научно-теоретический материал для студентов и исследователей.

Ключавыя слова: способности, психологические качества, общие способности, специальные способности, творческие способности, практические навыки, развитие способностей, генетические факторы, социальная среда, образование, личностное развитие, профессиональная направленность, деятельность личности.

Kirish qismi.

Qobiliyat - bu shaxsning ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar majmuidir. Qobiliyat tug'ma imkoniyatlar (tabiiy moyillik) va hayot davomida egallanadigan, bilim, ko'nikma hamda malakalarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllanadi.

Qobiliyatlar shaxsning

- Bilimlarni qanday tez o'zgartirishi,
- Murakkab vazifalarni hal qilish darajasi,
- Ijodkorlik,
- Muammo vaziyatda topqirligi,
- Muayyan sohada muvaffaqiyat ko'rsatish imkoniyatlarini belgilaydi.

Shu sababli qobiliyatlar har bir kasbiy faoliyati, ta'lim jarayoni, ijodiy rivojlanishi va jamiyatdagi o'rni belgilangan eng muhim omildir.

Qobiliyatning asosiy xususiyatlari

Qobiliyatni boshqa psixik jarayonlardan farqlovchi bir nechta belgilar mavjud:

1) Individuallik

Har bir inson qobiliyati takrorlanmas bo'ladi. Hatto egizaklarda ham qobiliyat darajasi va yo'nalishi turlicha bo'ladi.

2) Faoliyatga bog'liqlik

Qobiliyat faqat muayyan faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi. Masalan, matematik qobiliyat darsda misol yechganda ko'rinadi.

3) Dinamiklik

Qobiliyat vaqt davomida o'zgaradi: rivojlanadi va takomillashadi yoki pasayib ketishi ham mumkin.

4) Ijodkorlik bilan bog'liqlik

Qobiliyati yuqori bo'lgan odam o'z faoliyatida yangi g'oyalar yaratishga moyil bo'ladi.

Qobiliyatning turlari

1) Umumiy qobiliyatlar

Bu barcha faoliyatlarda kerak bo'ladigan psixologik sifatlar:

- tafakkur,
- xotira,
- diqqat,
- idrok,
- tahlil va sintez qilish,
- muommolarni hal qilish qobiliyati

2) Maxsus qobiliyatlar

Muayyan sohada faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar:

- musiqiy qobiliyat,
- matematik qobiliyat,
- sport qobiliyati,
- texnik qobiliyat,
- tibbiy qobiliyat,
- pedagogik qobiliyat,
- tasviriy san'at qobiliyati

3) Amaliy qobiliyatlar

O'qituvchi yoki insonning kundalik hayotda qo'llay oladigan malakalari:

- muloqot qilish,
- tashkilotchilik,
- boshqaruv qobiliyati,
- mehnat ko'nikmalari,

4) Ijodiy qobiliyatlar

Yangi fikr, g'oya mahsulot yaratishga qaratilgan.

- fantaziya,
- innovatsiya fikrlash,
- kashfiyotchilik,

Qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishi

1) Tugʻma asos (genetik omil)

Bolada tugʻma layoqatlar boʻladi - bu tabiiy imkoniyatlar. Masalan, ritmni yaxshi eshitish, tez oʻrganish qobiliyati, kuchli xotira.

2) Ijtimoiy muhit

Oiladagi sharoit, maktab, doʻstlar, motivatsiya - hammasi qobiliyatning shakllanishiga taʼsir qiladi.

3) Taʼlim va tarbiya

Toʻgʻri yoʻnaltirilgan taʼlim bolada maxsus qobiliyatlarning rivojlanishiga keng imkon ochadi.

4) Mashq qilish va mehnat

Qobiliyatning asosiy omili - uzluksiz mashq va amaliyotdir. Talant faqat mehnat bilan shakllanadi.

Qobiliyatning rivojlanish bosqichlari

1) Qiziqish bosqichi - bola yoki oʻquvchi biror faoliyatga qiziqishini namoyon qiladi.

2) Moyillik boshqichi - qiziqish barqarorlanib, faoliyatga takror- takror qaytish istagi paydo boʻladi.

3) Qobiliyat shakllanishi - oʻquvchi oʻrgana boshlaydi, faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga intila boshlaydi.

4) Talant boshqichi - maxsus qobiliyatlar kuchli shakllangan boʻladi

5) Isteʼdod - yangi gʻoyalar yaratadi va boshqalardan ajralib turadi.

Xulosa

Qobiliyat shaxsning maʼlum bir faoliyatni muvaffaqiyatli va samarali amalga oshirishga imkon beradigan muhim psixologik omil hisoblanadi. Insonning tabiiy layoqati, ijtimoiy muhit, taʼlim jarayoni va uzluksiz amaliy mashqlar qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishida asosiy rol oʻynaydi. Umumiy, maxsus, ijodiy va amaliy qobiliyatlarning uygʻun rivojlanishi shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi, kasbiy yoʻnalishini toʻgʻri tanlashga yordam beradi va jamiyatda faol oʻrin egallashiga sharoit yaratadi. Shu bois, har bir insonda mavjud boʻlgan imkoniyatlarni toʻgʻri yoʻnaltirish, oʻz vaqtida qoʻllab quvvatlash va rivojlantirish zamonaviy taʼlim tarbiyaning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zokirova N. **Psixologiya asoslari**. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
2. Shermuhamedova N., Joʻrayev A. **Pedagogik kommunikatsiya**. – Toshkent, 2019.
3. Habermas Y. **Kommunikativ harakat nazariyasi**. – Berlin, 2017.
4. Gʻaniyev R. **Muloqot psixologiyasi**. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2021.
5. Mehrabian A. **Nonverbal Communication**. – New York, 2009.
6. Turdiyev A. **Axborot madaniyati va raqamli savodxonlik**. – Samarqand, 2022.

7. Шомуротов, У. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МЕТОДОВ АРТ-ТЕРАПИИ В УСТРАНЕНИИ ЛИЧНОСТИ АГРЕССИИ. *Предпринимательства и педагогика*, 5(2), 91-95.
8. Abdukarimovich, Y. T., & Melikmurodovich, S. U. B. (2022). Art Therapy in Eliminating Aggressiveness in the Individual. *Global Scientific Review*, 9, 1-4.
9. MELIKBOBOYEVICH, S., QIZI, O., & QIZI, Q. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
10. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). Educator's Skill in Eliminating Aggressive Situations of Children Raised in Preschool Education Organization. *Samaraly Ta'lim Va Barqaror innovatsiyalar Jurnal*, 1(6), 611-616.